

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

**O‘RTA VA ILK YANGI DAVR INGLIZ ARBOBLARINING INGLIZ TILI  
LEKSIK TARKIBINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI  
ROLI<sup>22</sup>**

**Xamzayev Sobir Amirovich**

filologiya fanlari falsafa doktori, dotsent  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: [sobir.khamzaev@yahoo.com](mailto:sobir.khamzaev@yahoo.com)

ORCID ID: 0000-0001-5477-4616

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
<p>Mazkur maqolada ingliz tili tarixining o‘rta va yangi davrlarida faoliyat yuritgan ingliz ma’rifatparvarlari, yozuvchilari va jamoat arboblarning ingliz adabiy tili leksik tarkibining shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz adabiy tilining taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy muhit, adabiy an’analar va ilmiy-ma’rifiy harakatlarning ta’siri yoritiladi. Shuningdek, o‘rta asrlardan yangi davrgacha bo‘lgan tarixiy jarayonda ayrim ingliz adiblari va mutafakkirlarining ijodi orqali tilning leksik boyishi, yangi so‘z va ma’nolarning shakllanishi, adabiy uslubning mukammallashuvi kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ingliz adabiy tilining shakllanishida shaxsiy ijodiy omillar, ijtimoiy-madaniy jarayonlar hamda adabiy merosning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijasida ingliz adabiy tilining zamonaviy ko‘rinishi turli tarixiy bosqichlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar, shuningdek, buyuk shaxslarning ijodiy va ilmiy faoliyati natijasida shakllangan murakkab va ko‘pqirrali tizim sifatida namoyon bo‘ladi.</p>	<p>Ingliz adabiy tili, leksik tarkib, til taraqqiyoti, ingliz adiblari, ma’rifatparvarlar, til tarixi, o‘rta davr ingliz tili, yangi davr ingliz tili, til va jamiyat.</p> <p><b>Received:</b> March 13, 2026 <b>Accepted:</b> March 28, 2026 <b>Available online:</b> May 10, 2026</p>

<sup>22</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xamzayev S. O‘rta va ilk yangi davr ingliz arboblarning ingliz tili leksik tarkibining shakllanishi va rivojlanishidagi roli. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 251-264.

**THE ROLE OF MIDDLE AND EARLY MODERN ENGLISH  
WRITERS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE WORD  
STOCK OF THE ENGLISH LANGUAGE**

**Khamzaev Sobir Amirovich**

Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [sobir.khamzaev@yahoo.com](mailto:sobir.khamzaev@yahoo.com)

ORCID ID: 0000-0001-5477-4616

---

**ABSTRACT**

This article scientifically analyzes the role of English enlighteners, writers and public figures who lived and wrote their works in the Middle English and Modern English periods in the formation and development of the word stock of the English literary language. The study highlights the socio-cultural environment, the influence of literary traditions and scientific and educational movements in the development of the English literary language. Also, issues such as the lexical enrichment of language, the formation of new words and their meanings, the perfection of the literary style are considered through the work of some English writers and thinkers in the process of history from the Middle Ages to the new era. The results of the study show that in the formation of the English literary language, personal creative factors, socio-cultural processes and the harmony of literary heritage play an important role. The study reveals that the modern form of literary English is a complex and multifaceted system shaped by the socio-political and cultural processes of various historical stages, as well as the creative and scholarly activities of great figures.

---

**KEYWORDS**

English literary language, lexical content, language development, English writers, enlighteners, language history, MiddleEnglish, Modern English, language and society.

**РОЛЬ АНГЛИЙСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ СРЕДНЕГО И РАННЕГО  
НОВОГО ВРЕМЕНИ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ  
СЛОВАРНОГО ЗАПАСА АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

**Хамзаев Собир Амирович**

доктор философии по филологическим наукам,

доцент,

Узбекский государственный

университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [sobir.khamzaev@yahoo.com](mailto:sobir.khamzaev@yahoo.com)

ORCID ID: 0000-0001-5477-4616

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В данной статье научно анализируется роль английских просветителей, писателей и общественных деятелей, живших и создававших свои произведения в среднеанглийский и новоанглийский периоды, в формировании и развитии словарного состава английского литературного языка. В исследовании освещается социокультурная среда, влияние литературных традиций и научно-образовательных движений на развитие английского литературного языка. Кроме того, на материале творчества ряда английских писателей и мыслителей в историческом контексте (от Средневековья до Нового времени) рассматриваются такие вопросы, как лексическое обогащение языка, возникновение новых слов и их значений, совершенствование литературного стиля. Результаты исследования показывают, что в формировании английского литературного языка важную роль играли личностные творческие факторы, социокультурные процессы и преемственность литературного наследия. В результате в исследовании современный английский литературный язык предстаёт как сложная и многогранная система, которая формировалась под влиянием социально-политических и культурных процессов на различных исторических этапах благодаря, в том числе, творческой и научной деятельности великих личностей.</p>	<p>Английский литературный язык, лексический состав, развитие языка, английские писатели, просветители, история языка, среднеанглийский, современный английский, язык и общество.</p>

## KIRISH

Jahon tilshunosligida til lugʻat tarkibining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy-ijtimoiy omillar bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganish muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz adabiy tilining shakllanish jarayonida oʻrta va yangi davr ingliz arboblarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda ijod qilgan yozuvchi va mutafakkirlar nafaqat adabiy meros yaratgan, balki ingliz tili leksik tarkibini boyitish, meʼyorlashtirish va uslubiy jihatdan takomillashtirishga ham katta hissa qoʻshishgan. Mazkur maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, bugungi globallashtirish sharoitida tillar oʻzaro taʼsiri kuchayib borayotgan bir paytda, ingliz tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, xususan, uning lugʻat tarkibi shakllanishida muayyan shaxslar va ijodkorlarning rolini oʻrganish nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu esa zamonaviy tilshunoslikda leksikografiya, sotsiolingvistika va tarixiy tilshunoslik sohalari uchun muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda oʻrta va yangi davr ingliz arboblarning ingliz adabiy tili lugʻat tarkibining shakllanishi va rivojlanishiga koʻrsatgan taʼsiri tizimli ravishda tahlil qilinadi, ularning ijodidagi leksik innovatsiyalar, neologizmlar va oʻzlashma soʻzlarning xususiyatlari kompleks yondashuv asosida oʻrganiladi. Shuningdek, ayrim arboblarning individual uslubi orqali umummilliy adabiy til normalarining shakllanish jarayoni ochib beriladi. Maqolaning maqsadi – oʻrta va yangi davr ingliz arboblarning ingliz adabiy tili leksik tarkibini shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi: oʻrta va yangi davr ingliz tili taraqqiyotining asosiy bosqichlarini tahlil qilish, ingliz adabiy tili shakllanishida muhim oʻrin tutgan arboblarni aniqlash va ularning ijodini oʻrganish, mazkur arboblardan kiritilgan leksik yangiliklar va neologizmlarni tahlil qilish, xorijiy tillardan oʻzlashgan soʻzlarning ingliz tili leksik tizimidagi oʻrnini aniqlash, individual uslub va umummilliy til normalari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni yoritish.

## METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda oʻrta va yangi davr ingliz arboblarning ingliz adabiy tili leksik tarkibini shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini oʻrganishda kompleks yondashuv asosida bir qator umumilmiy va maxsus tilshunoslik metodlaridan foydalanildi. Avvalo, tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metod qoʻllanilib, ingliz tili rivojlanishining oʻrta va yangi davrlaridagi leksik taraqqiyot bosqichlari oʻzaro taqqoslandi. Ushbu metod orqali tilning turli davrlarida yuz bergan leksik oʻzgarishlar, yangi soʻzlar paydo boʻlishi va ularning maʼno kengayishi yoki torayishi kabi jarayonlar tahlil qilindi. Shuningdek, diaxron tahlil metodi asosida ingliz adabiy tili leksik tizimining vaqt davomidagi oʻzgarish dinamikasi oʻrganildi. Bu orqali muayyan ingliz arboblarning ijodida qoʻllanilgan leksik birliklar va

ularning keyingi davr til taraqqiyotiga ta'siri aniqlandi. Tadqiqotda kontekstual tahlil metodi ham muhim o'rin egalladi. Bundan tashqari, leksik-semantik tahlil metodi qo'llanilib, o'rganilayotgan davrdagi so'zlarning ma'no tuzilishi, semantik o'zgarishlari, neologizmlar va o'zlashma so'zlarning xususiyatlari tahlil etildi. Ushbu metod orqali ingliz tili leksik tarkibining boyishi va takomillashuvi jarayonlari ilmiy jihatdan asoslandi. Shu tariqa, yuqorida qayd etilgan metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, o'rta va yangi davr ingliz arboblarining ingliz adabiy tili lug'at tarkibi rivojiga qo'shgan hissasini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

Ingliz adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, o'rta (Middle English) va erta yangi davr (Early Modern English) davrlarida yashab ijod qilgan adabiyot arboblari, olimlar va davlat arboblari mazkur tilning leksik tarkibini boyitishda, uning normalari va uslubiy xususiyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutganlar.

O'rta ingliz davri (taxminan XI-XV asrlar) ingliz tili tarixida tub burilish davri hisoblanadi. 1066-yildagi Normanlar istilosi (Norman Conquest) natijasida fransuz tili (ayniqsa uning norman dialekti) ingliz tiliga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon ingliz tilining leksik qatlamini jiddiy o'zgartirdi: davlat boshqaruvi, huquq, harbiy ish, san'at va madaniyatga oid minglab fransuzcha so'zlar ingliz tiliga kirib keldi.

Bu davrdagi eng yirik adabiy arboblardan biri Jeffri Choser (Geoffrey Chaucer) hisoblanadi. Uning Kanterberri hikoyalari (The Canterbury Tales) asari nafaqat adabiy, balki lingvistik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Choser o'z asarlarida London dialektiga tayangan holda yozgan bo'lib, bu holat keyinchalik adabiy til normalari shakllanishiga zamin yaratgan. Uning ijodida fransuz va lotin tillaridan o'zlashgan so'zlar bilan bir qatorda german tillariga xos bo'lgan so'zlar ham uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

### ASOSIY QISM

Ingliz adabiyotining "otasi" bo'lmish Choser ingliz tili va uning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan O'rta davr ingliz tili (keyingi o'rinlarda O'DIT) davrining eng taniqli yozuvchisi bo'lgan. Choser asarlarining tili XIV asr London shevasining mumtoz shakli sifatida qaraladi (Ivanova I.P., Chaxoyan L.P., 1976, 49). Choser ingliz adabiyotini jahon adabiyotining keng tarkibiga kiritgan va uning gullab-yashnashiga ulkan hissa qo'shgan adib sifatida tan olinadi (Ivanova I.P., Chaxoyan L.P., 1976, 168). Choser Shekspir, Milton, Drayden kabi ingliz adabiyotining keyingi davr taniqli adiblariga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning ta'sirini biz Vordsvort, Longfellou, Skot, Morris, Tennison va boshqa adiblarning asarlarida kuzatishimiz mumkin.

M. Lenertning qayd etishicha, Choser, Viklif va Shekspir kabi adiblar ingliz tilining shakllanishi va rivojlanishida katta o‘rin tutishgan (Lehnert M., 1983, 297). Chet el tilshunoslari orasida ingliz tilining rivojiga eng ko‘p hissa qo‘shgan kim ekanligi haqida yakdil fikr mavjud emas. Ba’zi olimlar Jeffri Choserni shunday adib sifatida qayd etishsa, ayrimlari esa ish hujjatlari tiliga asosiy e’tibor qaratishadi.

XIX asrning qator olimlari (masalan, B.Ten Brink) Choserning ingliz adabiy tilining shakllanishidagi o‘rnini yuqori baholashgan. Ularning fikriga ko‘ra, Choser birinchi bo‘lib o‘sha davrda mavjud bo‘lgan barcha shevalarga xos bo‘lgan lisoniy unsurlarni bir butunga birlashtirgan va shu orqali milliy tilning shakllanishiga tamal toshini qo‘ygan (Ivanova I.P., Chaxoyan L.P., 1976, 50). Biroq, ayrim tadqiqotchilar bu o‘rinda ozroq mubolag‘a mavjudligini aytishadi. Masalan A.I. Smirnitskiyning fikricha, dunyodagi biror til ma’lum bir shaxsning irodasi bilan yaratilmaydi. Faqatgina ishlab chiqarishning va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi dialektal tarqoqlikka chek qo‘ya oladigan adabiy tilga ehtiyoj tug‘dirgan va shunday tilning yaralishiga imkon yaratgan (Smirnitskiy A.I., 1956, 86). Choser birinchi bo‘lib London shevasini adabiyotda qo‘llash mumkinligini isbotlagan va uni ingliz milliy adabiyotining yagona tiliga aylantirgan; pirovardida o‘sha vaqtda mavjud bo‘lgan lisoniy me’yorni mustahkamlagan. Choser ingliz tili rivojlanishi kerak bo‘lgan asosiy yo‘lni to‘g‘ri aniqladi va London shevasidan bu o‘rinda mohirona foydalangan.

Agar biz adabiyotni nazarda tutgan holda aytsak, London shevasini ingliz tilining asosiga aylantirish jarayoni aynan Choserning faoliyati bilan boshlangan. Choser London hukumatining tilini avom xalq tili bilan birlashtirib, xalqning barcha qatlamlari foydalanishi mumkin bo‘lgan umumxalq tilini yaratgan. Uning ingliz milliy tili rivoji uchun qilgan asosiy ishi – bu avom tilining faqat ingliz tilida ijod qilish uchun yetarli ekanligini isbotlay olgani bo‘lgan (The Oxford Dictionary of English Etymology, 1956, 366). A. Bo ta’kidlaganidek, “Choser ingliz milliy tilining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan adabiy harakatning tashabbuskori edi” (Baugh A.C., Cable T., 1978, 76).

Keyinchalik Choser o‘zining asarlarini qayta ko‘rib chiqish jarayonida ayrim fransuzcha so‘zlarni sifat jihatidan ko‘proq inglizcha so‘zlarga almashtirgan (Baugh A.C., Cable T., 1978, 31). Jespersenning ta’kidicha, Choser o‘z davrining boshqa yozuvchilariga qaraganda ancha ko‘p fransuzcha so‘zlardan foydalangan (Jespersen O., 1954, 86). Choser o‘sha davrning boshqa adiblari singari, o‘z asarlarida chet tillardan ko‘plab ilmiy atamalardan foydalangan. U boshqa tillardan o‘zlashtirgan so‘zlarning aniq miqdorini aytish imkonsiz. Biroq, hozirgi ingliz tiliga assimilyatsiya qilingan ko‘plab so‘zlardan (masalan, *diffusion* (*diffuziya*), *fraction* (*kasr*) kabi) foydalanganini ta’kidlash mumkin, zero, bu kabi so‘zlar Chosergacha yozilgan asarlarda ham uchramaydi va XVI asrgacha ham uchramaydi. Shu asosda

bu kabi soʻzlarning ingliz adabiy tiliga kiritilishi aynan Choser tufayli, deb hisoblash mumkin (Jespersen O., 1954, 32).

Choserning 8000 dan ortiq soʻzlarni oʻz ichiga olgan lugʻatida 4000 dan oshiq fransuz va lotin tillaridan olingan soʻzlar mavjud boʻlgan. Choserning ulkan xizmati ingliz tilini koʻplab oʻzga tillardan olingan soʻzlar bilan boyitganidadir. Choser ideal deb topgan soʻzlar asosan qoʻpol iboralar, pishitilmagan nutqning beoʻxshov iboralari oʻrniga ixcham va aniq nutqiy qurilmalar boʻlgan. Masalan, Choser ortiqcha, qoʻpol ifodalarni ixcham va aniq ifodalar bilan oʻzgartirishni (*He made his habitation in that place* oʻrniga *He lived there*, *He was possessed of great anger* oʻrniga *He was angry*); lotincha-rasmiy uslub oʻrniga jonli xalqona ifodalarni qoʻllashni (*Commence the journey* oʻrniga *Begin the trip*, *Render assistance* oʻrniga *Help*); shuningdek bevosita va obrazli, lekin ixcham ifodalarni qoʻllashni (*A person of deceitful and malicious disposition* oʻrniga *A false man*, *A lady of admirable beauty and virtue* oʻrniga *A fair and good woman*) afzal koʻrgan.

Choserning “Kanterberri hikoyalari”, “Yaxshi ayollar haqidagi afsona” va boshqa asarlari koʻp marta qayta yozilgan va butun Angliya boʻylab tarqatilgan. Bu London shevasi yozma shaklining maʼlum darajada tarqalishiga yordam bergan. A. Bo taʼkidlaganidek, Choserning ingliz tili yozma standartlarining qabul qilinishiga taʼsiri birlamchi boʻlgan. Biroq, ingliz tilida ish yuritish hujjatlarining yuritilishiga Choser faoliyati taʼsiri haqida gapirish oʻrinsizdir (Baugh A.C., Cable T., 1978, 86).

A. Boning taʼkidlashicha, Choserning asosiy taʼsiri London shevasining yozma nutqda qoʻllanila boshlanishiga nisbatan boʻlgan (Baugh A.C., Cable T., 1978, 239). Shuningdek, unga koʻra, Choser qoʻpol eshitiluvchi ingliz tilini yangi sifat darajasiga olib chiqqan. Choser sheʼriyat tilining yaratilishiga katta hissa qoʻshgan va uning anʼanalarining paydo boʻlishi uchun koʻp ish qilgan. Bu holat ayniqsa XV asrda va XVI asrning aksariyat qismida seziladi va nasr tilining rivoji ham aslida Choserga bogʻliqdir. U provinsializmlardan yumoristik effekt chiqarishda samarali foydalangan. Choser allaqachon qoʻllanilishda boʻlgan soʻzlar uchun yangi qoʻllanilish oʻrinlarini topgan. U ham Shekspir kabi ingliz tilining lingvistik va stilistik imkoniyatlarini tanqid ostiga olgan (Jespersen O., 1954, 41).

Choser oʻz asarlarida koʻplik shaklining kam qoʻllaniladigan shaklidan foydalanishni ilgari surgan, masalan: *yen* “koʻzlar”, *shoon* “bashmaklar”, *oxen* “xoʻkizlar”, *sustren* “opa-singillar” kabi. Bu shakl qoʻllanilishining asosiy qismi Choser tilining oʻziga xosligini isboti sifatida qaralishi mumkin, deb yozadi Ch.Friz (Fries Ch.C., 1963, 58). V.N. Yarsevaning yozishicha, Choserning nasriy asarlari tili XIV asr London ish yuritish tiliga juda yaqin boʻlgan. Uning sheʼrlarida quyidagi kabi soʻzlarni uchratish mumkin: *kesse* “boʻsa olmoq”, *fulfelle* “bajarmoq”, *besie* “band” shakli bilan birgalikda *bisie* shakli (Yarseva V.N., 1969, 79).

1475 yil (ingliz tilida birinchi kitob nashr etilgan) ingliz tili tilshunosligi tarixida burilish nuqtasi va yangi davr ingliz tili (keyingi o‘rinlarda YaDIT) davrining boshlanishi hisoblanadi, hamda 16-asrning so‘nggi choragi Angliyaning umumiy qabul qilingan adabiy tilining paydo bo‘lish vaqti hamdir (Stupin L.P., 1967, 31). Angliya hududiga kitob chop etishni kiritgan Vilyam Kekston ingliz tilida chop etgan birinchi kitob *The Recuyell of the Histories of Troy* (Troya haqidagi hikoyalar to‘plami) deb nomlangan va 1477 yilda esa Angliyadagi birinchi kitob – *The Dictes and Sayings of the Philosophers* (Faylasuflarning aforizmlari va fikrlari) bo‘lgan.

Kekston tomonidan Angliyada bosmaxonaning joriy etilishi ingliz adabiy tilining standartlarini mustahkamlashda undan oldingi omillarga qaraganda ancha katta ta‘sir ko‘rsatgan. Bosmaxona yordamida ingliz tilining doimiy lisoniy shakllari paydo bo‘ldi (Jespersen O., 1954, 68). Bu masalada Gitsning fikrini ta‘kidlash mumkin: “Kekston London shevasini bosma nashrda qo‘llab, undan adabiy tilni yaratdi, ammo agar Choser bu harakatga birinchi turtki bermaganida bu holat hech qachon yuz bermas edi” (Stupin L.P., 1967, 32).

Kekston va uning izdoshlari so‘zlarning yozma shakllariga eng kuchli ta‘sir ko‘rsatishgan. Kekston tomonidan yaratilgan so‘zlarning yozma shakllari o‘sha vaqtda standart sifatida qabul qilingan va hozirgi vaqtgacha o‘zgarishsiz qolmoqda. Nashrdan chiqqan kitoblar yordamida ingliz tilining London shevasi shakli butun Angliya bo‘ylab tarqalgan. Kekston ingliz tili imlosini ma‘lum darajada normalashtirgan. U yangi davr ingliz tilini sezilarli darajada mustahkamladi (Smirnitkiy A.I., 1956, 166).

Kekston ingliz tili normalarini topish va o‘rnatishga intilgan. Uning oldida qo‘llanilayotgan tilning to‘g‘riligi va noto‘g‘riligi masalasi paydo bo‘ldi. Kitoblarni tahrirlash va matnlarni tarjima qilish jarayonida u matnlarni ingliz tilining London shevasi shakllariga moslashtirgan. Kekstonning lisoniy ichki sezgisi bo‘lgan va undan samarali foydalangan. U 100 yil oldin mavjud bo‘lgan tildagi shakllarni va ingliz tilida kam qo‘llanilgan ayrim so‘zlarni almashtirgan; shu asosda o‘zgaruvchan lug‘atning turg‘un adabiy shakllarga o‘tishini ta‘minlagan.

Kekston yaratgan shakllar: *i-cleped-called* “nomladim, chaqirdim”; *ich-I men*; *to wone-to dwell* “yashamoq”; *eyren-eggs* “tuxumlar”; *helefiil-healthful* “shifobaxsh, sog‘lom” va hokazo. V.N. Yarsevaning ta‘kidlashicha, eskirgan so‘zlarning almashtirilgan barcha shakllari zamonaviy ingliz tilida shu holda mavjud (Yarseva V.N., 1969, 126). Mazkur holatda ham biz tashqi omillarning ingliz milliy tili lug‘at tarkibining shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sirini qayd etishimiz mumkin.

Kekston shimoliy shevaga xos so‘zlardan foydalanmagan, lekin uning asarlarida roman tillari guruhiga oid tillardan o‘zlashgan so‘zlar ko‘p miqdorda uchraydi: *prolongation* “uzaytirish, kechga qurish”, *aggravation* “yomonlashish”,

*furtive* “yashirin, xufiyona” va hokazo. Bu orqali esa ingliz adabiy tilining lugʻat tarkibi boyitilgan. Kekston ingliz tilini shunchalar “yosh va qoʻpol” hisoblaganki, fransuz, lotin kabi “yanada rivojlangan” tillardan soʻzlarni olishni tabiiy hisoblagan. L.P. Stupinga koʻra, Kekston ingliz adabiy tilining leksik tarkibini unga chet tillardan soʻzlar oʻzlashtirish orqali izchil va ongli ravishda boyitishni birinchilardan boʻlib targʻib qilgan shaxs edi (Stupin L.P., 1967, 31).

Ingliz adabiyotining gullagan davri dunyoga ingliz tili rivojiga taʼsir koʻrsatish boʻyicha tengsiz boʻlgan Shekspirni “taqdim qildi”. Shekspir hayoti va ijodi boʻyicha katta miqdordagi adabiyot bor va hattoki shekspirshunoslik yoʻnalishi ham mavjud. Shu sabab u haqida koʻp gapirish shart emas. Bizning tadqiqotga aloqador boʻlgan oʻrinlardagina uning hayoti va ijodiga murojaat qilamiz.

Maknaytning taʼkidlashicha, Shekspir asarlari orqali ingliz adabiy tiliga kirib kelgan iboralar masalasida hech qanday shubha boʻlishi mumkin emas (McKnight G.H., 1969, 13). Shekspirning koʻp sonli iboralari ingliz adabiy tili lugʻat tarkibining doimiy unsurlariga aylangan: *to be or not to be* “boʻlish yoki boʻlmaslik”; *much ado about nothing* “hech narsadan shovqin koʻtarish”; *some are bora great, some achieve greatness* “ayrimlar buyuk boʻlib tugʻilishadi, boshqalar buyuklikka erishishadi”; *o time most accurst!* “vaqt eng bevafo dir!”; *caviare to the general* “didsiz taʼb uchun ajoyib taom”; *o thoughts of men accurs'd!* “ey laʼnatlangan insonlarning xayollari!” (McKnight G.H., 1969, 14-15) kabi. Shekspir pyesalari va sonetlaridan olingan iboralari butun bir satrlari ingliz adabiy tili lugʻat tarkibining bir qismi sifatida qaraladi.

Hozirda ingliz tilida mavjud boʻlgan iboralari ularning taqlidlarining koʻpchiligi Shekspir asarlari tilining hanuzgacha dolzarbligini tasdiqlaydi (Shneider E.W., 2003, 242). Shekspir iboralari yaratishdan tashqari, qoʻshma soʻzlarning shakllanishiga ham ulkan hissa qoʻshgan deb taʼkidlash mumkin. Shekspir inglizcha soʻzlarning buyuk yaratuvchisi boʻlgan. Masalan, u ikkita sifatni birlashtirib, nazmiy qoʻshma soʻz yaratgan: *happy – valiant* “baxtli – oʻzining kasbiga loyiq”. Shuningdek boshqa mustaqil soʻzlarni bir qoʻshma soʻzga birlashtiradi: *eye-beam* “koʻz tashlash”.

Qoʻshma sifatlar ham Shekspir asarlari tilining asosiy xususiyatlaridan boʻlgan: *heaven-kissing* – “jannatiy boʻsa” va hokazo. Koʻplab soʻzlar buyuk dramaturg tomonidan mavjud soʻzlarga *en-*, *mi-*, *out-* kabi bir talay old qoʻshimchalar qoʻshish orqali yasalgan. “Buyuk soʻz musavviri” tomonidan yaratilgan yoki tilga kiritilgan soʻzlar keyinchalik ommaviy qoʻllanilishga koʻchgan va natijada ingliz adabiy tilining “tanasiga singib ketgan”.

Shekspir tomonidan taklif etilgan qoʻshma soʻzlarning ifodaliligini alohida taʼkidlash oʻrinlidir. Ularning yordamida adib koʻplab ifodaliligi jihatidan mukammal boʻlgan soʻz va iboralarni ingliz tiliga olib kirgan. Ingliz tilida *-let* bilan

tugallanadigan kichraytirish ma'nosini ifodalovchi so'zlarning mavjudligi asosida buyuk dramaturg shu turdagi yangidan-yangi so'zlarni yaratdi: *smilet* "kulgucha" (*smile*-kulgu so'ziga qarang). Shekspir tomonidan analogiya usulida yaratilgan bu kabi so'zlarning yana ko'pchiligini misol sifatida keltirish mumkin.

Shekspir asarlarida mumtoz tillardan ko'plab o'zlashtirilgan so'zlar mavjud edi: *accommodation* "istiqomat qilish joyi", *apostrophe* "apostrof", *misanthrope* "mizantrop" va boshqalar. Bu o'rinda biz ingliz adabiy tilining lug'at tarkibini boyitishga aniq misollarni ko'rishimiz mumkin. Bleyk "Shekspir tili" asarida yozganidek, Shekspir lotincha so'zlarni zo'rma-zo'raki kiritmagan, balki o'z xohishiga ko'ra, ularning ifoda jihatidan mukammalligini ta'kidlagan holda ingliz tiliga kiritgan (Yarseva V.N., 1969, 42).

Shekspir asarlari tilining so'z boyligi so'zlarning miqdoridagina emas, balki u qo'llagan so'zlarning ma'no ottenkalarida ham bilinadi. Masalan, u *free* so'zini "bo'sh, mustaqil, ixtiyoriy ravishda biror yumushni qilishga tayyor, ochiq, cheklanmagan, saxiy, beparvo, begunoh, zararsiz, oliyjanob, nafis" kabi ma'nolarda qo'llaydi. Shekspir ingliz adabiy tiliga ko'plab yangi so'zlarni kiritgan va yaratgan. Shu bilan birgalikda u cheksiz miqdordagi so'zlarning yangi ma'nolarini ham kiritgan.

Yuqoridagi material asosida ingliz adabiy tilining leksik tarkibini boyitishda Shekspirning muhim o'rnini ko'rsatib turibdi. Bu haqida U. Donskaya o'zining "Shekspir sonetlarining tili va uslubiyatining ayrim xususiyatlari" deb nomlangan asarida yozishicha, Shekspir XVI asr oxirigacha rivojlangan bilim sohalarning barchasiga o'z sonetlarida to'xtalib o'tgan (Donskaya Ye.K., 1986, 241). Miqdor jihatidan esa, adib sonetlari leksik tarkibida Rojer lug'atida mavjud deyarli barcha so'zlarini topish mumkin. Donskaya adib sonetlarida qo'llanilgan terminologiyalarning fanlar, kasblar va mutaxassisliklar kesimida taqdim etadi:

- 1) falsafa – *time* "vaqt", *life* "hayot", *nature* "tabiat", *death* "o'lim" va hokazo;
- 2) estetika – *beauty* "go'zallik", *music* "musiqa", *painter* "rassom" va hokazo;
- 3) etika – *moral* "ma'naviyat";
- 4) yurisprudensiya – *legacy* "meros", *to advocate* "himoya qilish, targ'ib etish", *to allege* "murojaat qilish" (oqlanishda, isbotlashda) va hokazo;
- 5) tarix – *vassal* "vassal", *knight* "ritsar", *king* "qirol" va hokazo;
- 6) iqtisodiyot, biznes – *to consume* "iste'mol qilish, sarflash", *profit* "foyda, daromad", *to lease* "ijaraga berish yoki olish" va hokazo;
- 7) teologiya (ilohiyot) – *impiety* "iymonsizlik", *to bless* "yorlaqamoq, siylamoq" va hokazo (Donskaya Ye.K., 1986, 242).

XVI asr yutuqlari ta'sirida Shekspir nazmiy tilga o'ziga xos leksikani kiritgan va o'z ishlarida ulardan samarali foydalangan: *heat* "issiqlik", *cold* "sovuqlik",

*warm* “iliqlik” (fizika sohasi terminlari); *sun* “quyosh”, *earth* “yer”, *star* “yulduz, yoritgich” (astronomika sohasi terminlari) va hokazo.

Shekspir o‘z asarlarida 20,000 dan ortiq turlicha so‘zlardan foydalangan. Bu esa o‘sha vaqtda mavjud bo‘lgan lug‘atlardan-da ko‘p miqdorni tashkil qilgan (masalan, o‘sha vaqtdagi Milton lug‘ati atigi 8000 so‘zlik edi) va shu asosda uning asarlarining lisoniy jihatdan boy deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, garchi Shekspir ko‘plab so‘zlarni boshqa tillardan o‘zlashtirib qo‘llagan bo‘lsa-da, uning asarlarida ona tilidagi so‘zlar miqdori ko‘pchilikni tashkil etadi (90%) (Delius N., 1852, 172).

Ingliz adabiyotining buyukligi Edmund Sepirdan boshlanadi. XVI asr ingliz adabiyotining eng muhim shaxslaridan biri, Uyg‘onish davrining buyuk shoiri Edmund Sepir edi. Bredlining ta’kidlashicha, Spenserning ingliz adabiy tiliga ta’siri uning ustози bo‘lmish Choserning ta’siriga yaqin bo‘lgan. Agar Choser o‘z davrining ingliz tilidan boricha foydalangan va deyarli yangi so‘zlar yaratmagan bo‘lsa, Spenser o‘z asarlarida qo‘llash uchun sun‘iy lahja yaratgan. U mazkur lahjaning ayrim so‘zlari va so‘z shakllarini oldingi davr ingliz tilisidan olgan hamda ayrim provinsializmlarni o‘zi yaratgan. Zamonaviy ingliz adabiy tili leksik tarkibida Spenser ta’sirining izlarini topish mumkin. Misol uchun, ot so‘z turkumiga xos *braggadocio* “maqtanchoqlik, maqtanchoq” so‘zi uning “Sehrli qirolicha” poemasidagi o‘ziga bino qo‘ygan ritsar nomi bilan bog‘langan bo‘lib, uning sifatlarini ta’riflash uchun Spenser birinchi bo‘lib *blatant* “baqiroq”, *elfin* “elflarga aloqador bo‘lgan” kabi sifatlarni qo‘llagan (Yarseva V.N., 1969, 228).

V.N. Yarsevaning ta’kidlashicha, Spenser anglosakson so‘zlari eski o‘zak shakllaridan foydalangan holda arxaizmlarni (asosan Choser asarlaridan saralab olingan) va dislektizmlarni tiklash orqali ingliz tili lug‘at tarkibini boyitishga intilgan (Yarseva V.N., 1969, 172). Zamonaviy ingliz she’riyatida foydalaniladigan arxaizmlarning deyarli barchasi birinchi navbatda Spenser tomonidan kiritilgan (Ginzburg R.S., Khidekel S.S., Knyazeva G.Y., Sankin A.A., 1979, 216). Shu asosda ta’kidlash lozimki, Spenser o‘sha davr ingliz tili lug‘at tarkibini asosan arxaizmlar, dialektizmlar va o‘zi yaratgan neologizmlar yordamida boyitgan.

Spenser o‘z she’riy asarlarida quyidagi kabi so‘zlardan foydalangan: *dreary* “ma’yus” sifat so‘z turkumiga oid so‘zdan yasalgan *dreariment* “ma’yuslik” so‘zi; *need* “ehtiyoj” so‘zidan *needment* “kerak bo‘lgan barcha narsa” so‘zi kabi. Italyan tilidan olingan *canto* “qo‘shiq” so‘zi aynan Spenser tomonidan ingliz tiliga kiritilgan. Yuqoridagi adiblardan tashqari T. Mor, V. Tindal kabi adiblar ham ingliz milliy tili lug‘at tarkibining boyishiga o‘ziga xos hissa qo‘shishgan. Biroq, yuqoridagi nomlari keltirilgan adiblarning ta’siri nisbatan kam bo‘lganligi sababidan biz ular haqida so‘z ochmaslikga qaror qildik.

Oʻrta va erta yangi davr ingliz arboblari ingliz adabiy tilining leksik tarkibini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol oʻynadilar. Jeffri Choser adabiy tilning asoslarini yaratgan boʻlsa, Uilyam Shekspir uning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytirdi. Uilyam Kakston va Samuyel Jonsonlar esa tilni standartlashtirish va meʼyorlashtirish jarayoniga muhim hissa qoʻshishgan.

### **XULOSA**

Oʻrta va yangi davrda yuz bergan ijtimoiy oʻzgarishlar til rivoji uchun zamin yaratgan boʻlsa, ana shu imkoniyatlardan foydalanib, ijodkorlar leksik tarkibni boyitishga bevosita hissa qoʻshganlar. Demak, til taraqqiyotida ham obyektiv (ijtimoiy) va ham subyektiv (individual) omillar birgalikda amal qiladi. Shu tariqa, olib borilgan munozaralar shuni koʻrsatadiki, ingliz adabiy tili leksik tarkibining shakllanishi va rivojlanishi koʻp omilli va murakkab jarayon boʻlib, unda ijtimoiy sharoitlar, madaniy taʼsirlar va alohida ijodkorlarning faoliyati oʻzaro uygʻunlikda namoyon boʻladi.

Shu tariqa, ingliz adabiy tilining zamonaviy koʻrinishi turli tarixiy bosqichlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar, shuningdek, buyuk shaxslarning ijodiy va ilmiy faoliyati natijasida shakllangan murakkab va koʻpqirrali tizim sifatida namoyon boʻladi.

Oʻrta va yangi davr ingliz arboblarining ingliz adabiy tili leksik tarkibini shakllantirish va rivojlantirishdagi rolini oʻrganish natijalari mazkur yoʻnalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini koʻrsatadi. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy yoʻnalishlarda izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Avvalo, ingliz adabiy tili leksik tarkibining shakllanishida alohida ijodkorlarning rolini korpus lingvistikasi asosida tadqiq qilish tavsiya etiladi. Zamonaviy elektron matnlar bazasi (korpuslar) yordamida muayyan arboblar ijodida qoʻllanilgan leksik birliklarning chastotasi, semantik xususiyatlari va dinamikasi aniqroq tahlil qilinishi mumkin. Ikkinchidan, zamonaviy raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekt vositalaridan foydalangan holda til tarixini modellashtirish, leksik oʻzgarishlarni prognoz qilish kabi innovatsion yondashuvlarni qoʻllash ham istiqbolli yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Baugh A.C., Cable T. A History of the English Language. – London: Routledge and KeganPaul, 1978. – 567 p.
2. Delius N. Shakespeare-Lexikon. – Bonn: Verlag von H.B.Konig, 1852. – 349 p.
3. FriesCh.C. English word lists: A study of their adaptability for instruction. – Washington, D.C. American Council on Education, 1963. – 109 p.

4. Ginzburg R.S., Khidekel S.S., Knyazeva G.Y., Sankin A.A. A Course in Modern English Lexicology. – Moscow: Vyssaja skola, 1979. – 269 p.
5. Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles, vol. 6. – London: George Alien and Unwin Ltd., 1954. – 400 p.
6. Lehnert M. Shakespeares und Luthers Verdienste urn die Herausbildung der englischen und deutschen Nationalsprache // Zeitschrift fur Anglistik und Amerikanistik. Heft 4. – Leipzig: VEB Verlag Enzyklopadie, 1983. – P. 297.
7. McKnight G.H. English Words and Their Background. –New-York: Gordian Press. 1969. – 347 p.
8. Shneider E.W. The dynamics of new Englishes: From identity construction to dialect birth// Language. New York, 2003. – Vol.5. N 2. – P.240-248.
9. The Oxford Dictionary of English Etymology /C.T. Onions (ed). – Oxford: Clarendon Press, 1966. – 820 p.
10. Donskaya Ye.K. Nekotore osobennosti yazika i stilya sonetov Shekspira // Shekspirovskije chteniya 1984: Sb. nauch. tr. – Moskva: Nauka, 1986. – Str. 241-248.
11. Ivanova I.P., Chaxoyan L.P. Istoriya angliyskogo yazika. Uchebnik. – Moskva: Visshaya shkola, 1976. – 508 str.
12. Smirnitkiy A.I. Leksikologiya angliyskogo yazika. – Moskva: Inostranaya literatura, 1956. – 260 str.
13. Stupin L.P. Osnovnie etapi istorii angliyskoy leksikografii (VII-XVIII vv.) // Voprosi strukturi angliyskogo yazika v sinxronii i diaxronii, vsh.1. – Leningrad: Izd-vo LGU, 1967. – Str. 28-35.
14. Yarseva V.N. Razvitiye natsionalnogo literaturnogo angliyskogo yazika. – Moskva: Nauka, 1969. – 286 str.

## REFERENCES

1. Baugh A.C., Cable T. (1978). A History of the English Language. London: Routledge and KeganPaul.
2. Delius N. (1852). Shakespeare-Lexikon. Bonn: Verlag von H.B.Konig.

3. Fries Ch.C. (1963). English word lists: A study of their adaptability for instruction. Washington, D.C. American Council on Education.
4. Ginzburg R.S., Khidekel S.S., Knyazeva G.Y., Sankin A.A. (1979). A Course in Modern English Lexicology. Moscow: Vyssaja skola.
5. Jespersen O. (1954). A Modern English Grammar on Historical Principles, vol. 6. London: George Alien and Unwin Ltd.
6. Lehnert M. (1983). Shakespeares und Luthers Verdienste urn die Herausbildung der englischen und deutschen Nationalsprache // Zeitschrift fur Anglistik und Amerikanistik. Heft 4. Leipzig: VEB Verlag Enzyklopadie.
7. McKnight G.H. (1969). English Words and Their Background. New-York: Gordian Press.
8. Shneider E.W. (2003). The dynamics of new Englishes: From identity construction to dialect birth// Language. New York. – Vol.5. N 2.
9. The Oxford Dictionary of English Etymology (1966). /C.T. Onions (ed). – Oxford: Clarendon Press.
10. Donskaya E.K. (1986). Some features of the language and style of Shakespeare's sonnets // Shakespeare readings 1984: Collection of scientific papers. Moscow: Nauka.
11. Ivanova I.P., Chakhoyan L.P. (1976). History of the English language. Study. Moscow: Higher School.
12. Smirnitskiy A.I. (1956). Lexicology of the English language. – Moscow: Foreign literature.
13. Stupin L.P. (1957). The main stages of the history of English lexicography (VII-XVIII centuries) // Questions of the structure of the English language in synchrony and diachrony, vol.1. Leningrad: LSU Publishing House.
14. Yartseva V.N. (1969). Development of the national literary English language. Moscow: Nauka.